

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA BEGONA BO'LGAN BEGONA O'TLARGA QARSHI TASHQI KARANTIN TADBIRLARI

*Adhamjonova Xolidaxon Otabek qizi*

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi*

*Mamatboyev Akbarjon Anvarjon o'g'li*

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi*

*Jumaboyev Axrorbek Oybekjon o'g'li*

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi*

**Annatsiya:** Mamlakatlar miqiyosida karantin tadbirlari mavjud bo'lib bunday tadbirlar mamlakatga begona bo'lgan kasallik, zararli zararkunandalar va begona o'tlarni kirib kelishi oldi olinadi. Mamlakatimizga kirib kelayotgan turli import maxsulotlarni maxsus usullar yordamida aniqlanmasa qishloq xo'jalik yerlariga begona o'tlar bosib madaniy ekinlarga jiddiy ziyon yetkazadi. Ushbu maqolamizda mamlakatimizga kirib kelishi mumkun bo'lgan begona o'tlar bilan tanishib olishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Karantin tadbirlari, begona o'tlar, gerbitsitlr, agrotexnik tadbirlar, kimyoviy moddalar.

**Kirish.** O'simliklarni zararli organizmlardan ishonchli himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-iyuldagi "Respublikada o'simliklar karantini va himoyasi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6262-son Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida o'simliklar karantini va himoyasida prognoz tizimini takomillashtirish, zararli organizmlarga qarshi kurashning uyg'unlashgan samarali usullarini belgilash hamda ijrosini nazorat qilish, monitoring olib borish, iqtisodiy zarar yetkazishi mumkin bo'lgan zararli organizmlarning respublika hududiga kirib kelishi va tarqalishining oldini olish hamda yo'q qilish;

Karantin tadbirlari quyidagilarga taalluqlidir: qishloq xo'jalik ekinlari, dorivor, o'rmon hamda manzarali ekinlarning urug'lari va ko'chatlariga, o'simliklar hamda ularning qismlari (qalamchasi, piyozi, tugunagi, mevasi va boshqalar)ga, shuningdek zararkunandalarni, o'simlik kasalliklari va begona o'tlarni olib o'tishi mumkin bo'lgan boshqa har qanday o'simlik mahsulotlariga;

tirik zamburug'lar, bakteriyalar, viruslar, nematodlar, kanalar va hasharotlarga;

o'simlik kasalliklarini qo'zg'atuvchi hasharotlar kolleksiyalari va bu hasharotlar keltiradigan zararlarning namunalari, shuningdek gerbariylar va urug'lar kolleksiyalariga;

karantin ostida deb e'lon qilingan chet mamlakatlardan va respublika hududidan kelayotgan, zararkunandalarni, o'simlik kasalliklari va begona o'tlarni olib o'tishi mumkin bo'lgan qishloq xo'jalik mashinalari va yerni ishlash qurollari, idishlarning barcha turi, ayrim sanoat mollari, o'rov-qoplov vositalari hamda o'simlikdan tayyorlangan mahsulotlar, yaxlit toshlar, tuproq namunalari, transport vositalariga.

Karantin begona o'simliklar — qishloq xo'jaligi uchun o'ta xavfli, muayyan hududda uchramaydigan yoki kam tarqalgan begona o'simliklar. Bu o'simliklar ekinlar hosilini kamaytiradi, ularning ayrim turlari kishilarga va chorva mollariga katta ziyon keltiradi. Qishloq xo'jaligiga begona o'simliklarning kirib qolishi va tarqalishidan muhofaza qilish uchun ko'pgina davlatlarda maxsus qonunlar (O'zbekistonda „O'simliklar karantini to'g'risida“ qonun 1995-yil 31-avgustda) qabul qilingan. O'zbekiston Respublikasi hududida uchramaydigan va karantin tadbirlari qo'llaniladigan. xavfli begona o'simliklar Tikanli ituzum — Chiziqbargli ituzum — Karolina ituzumi — Uch gulli ituzum — Amerika sassiq kakrasi — Kaliforniya kungaboqari — Kiprikli kungaboqar — Barg bandli kungaboqar — Tukli kungaboqar — Strigalar — Uch bo'lakli ambroziya — Kup yillik ambroziya — Kam gulli senxrus (lantarsimon)— Qatgiq tukli tikanmeva — Hind eshinomensi — Virginiya eshinomensi — Bidens bipinata — G'arb kassiyasi — Tora kassiyasi — To'pgulli kroton — Jo'vasimon diodiya — Janubiy emeks — Tikanli emeks — Hoshiyali sutli o't — Arrasimon sutli o't — Pechaksimon ipomeya — Yuraksimon bargli jakament o'ti — Pensilvaniya suv murchi — Raymoniya suv murchi — Sesbaniya makrokarpa — Mayda dukkakli sesbaniya — Burchakbargli qovoqsimon o't — Tikanli sida — O'zbekistan hududida kam tarqalgan karantin begona o'simliklar Zarpechaklar Kakra (pushtirang) Shuvoq bargli ambroziya *Cuscuta sp.sp.* *Acroptilan repens* D. L. *Ambrosia artemisifolia* L.

Mamlakatda uchramaydigan Karantin begona o'tlarga qarshi tashqi Karantin choralari tadbirlari ko'riladi, jumladan, chet eldan keltiriladigan barcha o'simliklar, urug'lar, turli bargalar va yuklar, shuningdek, ichki karantinga olingan tuman va xo'jaliklardan keltiriladigan yuklar, albatta, tekshiruvdan o'tkaziladi.

Karantin begona o'tlarga umumiy (Begona o'tlar), shuningdek, maxsus qarshi kurashish choralari qo'llaniladi: urug'lik xo'jaliklarda urug'lik uchastkalar uchun begona o'tlari yo'q, toza yerlar ajratiladi; Karantin begona otlari o'sgan uchastkalarda esa, ularni gullagunga qadar yo'qotish uchun maxsus agrotexnik, mexanik yoki kimyoviy tadbirlar amalga oshiriladi; Karantin begona o'tlar urug'i aralashgan urug'lik material alohida binolarda saqlanadi va tozalanadi; xo'jalik uchun yaroqsiz o'simlik qoldiqlari yo'q qilib tashlanadi; Karantin begona o'tlar urug'i aralashgan urug'lik materiallarini viloyat doirasida tashish Davlat urug'lik nazorati inspeksiyasidan, chetga chiqarish uchun esa qishloq xo'jaligi o'simliklari karantini bo'yicha Davlat inspeksiyasidan berilgan maxsus ruxsatnoma bilangina amalga oshiriladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1.Kimsanboyev X., O'lmasboyeva R. – Qishloq xo'jalik o'simliklarining karantini asoslari. ( uslubiy qo'llanma ). ToshDAU nashr taxririya bo'limi Toshkent 2002y.

2.Xolmurodov E. Xasanov. B. Boltayev B. – O'simliklar karantini. O'quv qo'llanma. Toshkent-2012y.

3.Xasanov B.O. va boshqalar.G'alla sholini zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlardan himoya qilish. Tashkent, 1996y.

4. Odiljon o'g'li T. O. et al. SHOLINING PIRIKULIYARIOZ KASLLIGI VA UNGA QARSHI KURASHISH CHORALARI //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 30. – №. 1. – С. 146-150.

5. Ajiev A. B., Mambetullaeva S. M. O'zbekiston Respublikasida madaniy o'simliklarning yovvoyi qarindoshlaridan foydalanish va muhofaza qilishning huquqiy jihatlari // Texas ko'p tarmoqli tadqiqotlar jurnali. – 2022. – Т. 5. – В. 298-304.